

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 238 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinovna	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	



O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB- QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI



Ergashev Jamshid Jamoliddinovich

I.F.F.D, PhD, NamDTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining hozirgi holati tahlil qilib borilgan. Kichik biznes subyektlari faoliyatini rag'batlantirishda moliyaviy, soliq, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot davomida kichik biznesni rivojlantirishda uchrayotgan asosiy muammolar - moliyaviy manbalarga cheklangan kirish, byurokratik to'siqlar, kadrlar salohiyatining pastligi va innovatsion infratuzilmaning yetarli emasligi tahlil qilingan. Maqolada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamli texnologiyalarni joriy etish, soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish taklif etilgan. Tadqiqot natijalari ko'ra O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, moliyaviy resurslar, soliq imtiyozlari, innovatsion rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the current state of small business development in the Republic of Uzbekistan and the system of state support provided to it. The study substantiates the necessity of improving financial, tax, legal, and organizational mechanisms to stimulate the activities of small business entities. During the research, the main challenges hindering the development of small business—limited access to financial resources, bureaucratic barriers, low human capital capacity, and insufficient innovation infrastructure—were examined in detail. The article proposes priority directions for improving the small business support system, including the introduction of digital technologies, expansion of tax and credit incentives, promotion of youth and women entrepreneurship, and enhancement of export potential. According to the research findings, strengthening the competitiveness of small businesses and ensuring sustainable economic growth in Uzbekistan largely depend on these measures.

Keywords: small business, private entrepreneurship, economic reforms, financial resources, tax incentives, innovative development.

Аннотация. В данной статье анализируется современное состояние развития малого бизнеса в Республике Узбекистан и система его государственной поддержки. Обоснована необходимость совершенствования финансовых, налоговых, правовых и организационных механизмов стимулирования деятельности субъектов малого бизнеса. В ходе исследования были выявлены основные проблемы, препятствующие развитию малого бизнеса, — ограниченный доступ к финансовым ресурсам, бюрократические барьеры, низкий уровень кадрового потенциала и недостаточность инновационной инфраструктуры. В статье предложены приоритетные направления совершенствования системы поддержки малого бизнеса: внедрение цифровых технологий, расширение налоговых и кредитных льгот, развитие молодежного и женского предпринимательства, а также повышение экспортного потенциала. Результаты исследования показывают, что укрепление конкурентоспособности малого бизнеса и обеспечение устойчивого экономического роста в Узбекистане во многом зависят от данных мер.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, экономические реформы, финансовые ресурсы, налоговые льготы, инновационное развитие.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki kichik biznes - bu nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish vositasi, balki aholining daromadini oshirish va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishning muhim omilidir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – bu mamlakat iqtisodiyotining tayanchi, xalq farovonligining eng muhim manbaidir"[1]. Ushbu soha iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Biroq amaliyotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish imkoniyati, soliq va ma'muriy yuklamalarning mavjudligi, innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu sohaning to'liq imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga halal bermoqda [2]. Shu bois, O'zbekiston sharoitida kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada kichik biznesni rivojlantirishning mavjud mexanizmlari tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari va amaliy takliflari yoritib borilgan [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy islohotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi, ijtimoiy bandlikni oshiruvchi hamda innovatsion yangiliklarni joriy etuvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B. Xolboev, M. Jo'rayev, D. Toshpo'latov, N. Abdullayev, S. Karimovlarning ilmiy izlanishlarida kichik biznesni iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish, uni moliyaviy, soliq va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarini tashkil etish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlarning samaradorligini oshirish masalalari chuqur o'rganilgan.[6] Xorijiy adabiyotlarda esa J. Schumpeter, P. Drucker, M. Porter, D. Storey, A. Marshall kabi iqtisodchi olimlarning asarlarida kichik biznesning innovatsion rivojlanishdagi o'rni, raqobatbardosh ustunlikni shakllantirish mexanizmlari, hamda davlat siyosatining kichik korxonalarni rag'batlantirishdagi o'rni keng tahlil qilingan.[8] Masalan, J. Schumpeter kichik biznesni iqtisodiy tizimda innovatsion jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida talqin qiladi, P. Drucker esa kichik tadbirkorlikni "ijodiy tashabbus va yangiliklar manbai" deb ataydi. Bundan tashqari, BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va tavsiyalari kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.[5] Ularning ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes yalpi ichki mahsulotning 50–70 foizini tashkil etadi, bu esa O'zbekiston uchun ham muhim tajriba sifatida xizmat qilib kelmoqda. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, ko'plab manbalarda kichik biznesni rivojlantirishning ayrim jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, ularni O'zbekiston sharoitiga mos ravishda kompleks yondashuv asosida takomillashtirish, ya'ni huquqiy, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion mexanizmlarni uyg'unlashtirish zaruriyati dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sanoatni diversifikatsiya qilish jarayonlarini o'rganishda bir nechta tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil O'zbekiston sanoatini boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirish imkonini berdi. Deduksiya usuli umumiy iqtisodiy qonuniyatlardan kelib chiqib xulosalar chiqarishda qo'llanildi. Induksiya usuli hududiy statistik ma'lumotlarni umumlashtirishga xizmat qildi. Laboratoriya tahlili esa ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot sifati ko'rsatkichlarini aniqlashda yordam berdi.

NATIJALAR VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlari bilan ajralib turadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda kichik biznes subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 56,2 foizni, band aholi sonidagi ulushi esa 78 foizdan ortiqni tashkil etdi.[11] Bu esa kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yanada oshirib, uni davlat siyosatining strategik yo'nalishiga aylantirganini ko'rsatadi. Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:

– "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" orqali kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda;



- “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” orqali biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va ruxsat olish jarayonlari soddalashtirildi;[4]
- soliq yuklamalari kamaytirildi, kichik korxonalar uchun soddalashtirilgan hisobot tizimi joriy etildi;
- “Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazlari” va “Yoshlar startap dasturlari” faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bu chora-tadbirlar natijasida minglab yangi korxonalar tashkil etildi va ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida bandlik darajasi oshib bormoqdi. Shuningdek, tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Shu bilan birga, tahlillar kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimida bir qator muammoli jihatlar saqlanib qolayotganini ham ko‘rsatmoqda. Bular:

Kichik biznesning rivojlanishiga turli tizimli omillar to‘sqinlik qilmoqda va ular iqtisodiyotning ushbu sektoridagi faollikni sezilarli darajada cheklab qo‘ymoqda. Eng avvalo, moliyaviy cheklovlar jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Amaldagi bank kreditlari portfelining katta qismi yirik korxonalarga yo‘naltirilgani sababli kichik biznes subyektlarining arzon va uzoq muddatli moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklanmoqda. Bu esa nafaqat ularning investitsion loyihalarini amalga oshirishiga, balki ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilishiga to‘sqinlik qiladi.

Ikkinchi muhim muammo – byurokratik to‘siqlar bo‘lib, litsenziya va ruxsatnomalarni olish jarayonlari ko‘plab hollarda murakkab, ortiqcha hujjatlashtirilgan va uzoq muddatli bo‘lib qolmoqda. Bunday ma‘muriy yuk tadbirkorlik muhitining jozibadorligini pasaytiradi, kichik korxonalar uchun esa qo‘shimcha vaqt va xarajat talab etadi. Shu sababli, “bir darcha” tizimini yanada takomillashtirish va ortiqcha tartib-taomillarni qisqartirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Uchinchi muhim masala – innovatsion infratuzilmaning sustligi. Ko‘plab kichik korxonalar zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli bilim, tajriba va moliyaviy imkoniyatlarga ega emas. Natijada, ular raqobatbardoshlikda ortda qolmoqda, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari esa cheklangan bo‘lib qolmoqda. Inkubatorlar, texnoparklar va ilmiy-innovatsion markazlarning yetarli darajada rivojlanmagani ham vaziyatni murakkablashtiradi.

Shuningdek, eksport salohiyatining pastligi ham kichik biznesni rivojlantirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Logistik infratuzilmaning rivojlanmaganligi, eksport uchun zarur sertifikatlash jarayonlarining murakkabligi va xalqaro marketing bo‘yicha yetarli ko‘nikmalarning yo‘qligi sababli kichik korxonalar tashqi bozorga chiqishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa jarayonning iqtisodiy jihatdan yuqori tavakkalchilikka ega bo‘lishiga olib keladi.

Nihoyat, kichik biznesning samaradorligiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillardan biri – kadrlar salohiyati muammosidir. Zamonaviy boshqaruv, marketing strategiyalari, raqamli texnologiyalar va innovatsion tadbirkorlik bo‘yicha malakali mutaxassislarining yetishmasligi kichik korxonalar faoliyatini cheklab qo‘ymoqda. Bu esa bozor talablariga moslashish jarayonini sekinlashtiradi va ishlab chiqarishning sifat ko‘rsatkichlarini pasaytiradi.

Mazkur muammolarning majmuaviy xususiyati kichik biznesni rivojlantirish siyosatini qayta ko‘rib chiqishni, yangi mexanizmlar va qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini joriy etishni talab etadi. [7]

Yuqorida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida bir qator taklif va ustuvor yo‘nalishlar ishlab chiqildi. Avvalo, kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Buning uchun mikromoliyaviy tashkilotlar va investitsiya jamg‘armalari faoliyatini kengaytirish, shuningdek, garovsiz kredit tizimini bosqichma-bosqich joriy etish taklif etiladi. Keyingi muhim yo‘nalish — bu tadbirkorlik jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etishdir. “Raqamli tadbirkorlik platformasi” orqali biznes faoliyatini avtomatlashtirish, onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kichik biznesning samaradorligini oshiradi.

Hududlarda, ayniqsa chekka tumanlarda, biznes inkubatorlari va akseleratorlar tarmog‘ini rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan biridir. Bu yoshlar va startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini oshirish uchun sertifikatlash, marketing va reklama xizmatlarini davlat tomonidan qisman moliyalashtirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish lozim.

Tadbirkorlikni o‘qitish tizimini modernizatsiya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Oliy ta‘lim muassasalarida “Tadbirkorlik asoslari” yo‘nalishini kengaytirish, yoshlarni amaliy biznes loyihalariga jalb etish orqali kichik biznesning malakali kadrlar bilan ta‘minlanishi yaxshilanadi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, raqamli iqtisodiyotga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish va xususiyl sektor tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ustuvor ahamiyatga ega.[10] Agar taklif etilgan yo‘nalishlar amaliyotga to‘liq joriy etilsa, kichik biznes subyektlari mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishida, yangi ish o‘rinlarini yaratishda va xalqaro raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda yanada faol ishtirok eta oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligi ham aynan shu sohaning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga qulay biznes muhiti yaratish, soliqqa oid yangiliklar va moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish natijasida so'nggi yillarda mazkur sohada sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Jumladan, kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yil sayin ortib bormoqda, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda va hududiy iqtisodiyotlarning faolligi oshmoqda. Shu bilan birga, tadqiqot davomida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimida bir qator yechimini kutayotgan masalalar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, tijorat banklarining kredit siyosati hali ham kichik biznes subyektlari uchun yetarli darajada qulay emas, garov ta'minotining yuqoriligi ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuningdek, ayrim hududlarda biznes infratuzilmasining sust rivojlanganligi, marketing va innovatsion boshqaruv sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi, eksport faoliyatining pastligi kichik biznes rivojiga to'siq bo'lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqildi:

1. Huquqiy-me'yoriy asoslarni takomillashtirish zarur. Kichik biznesni tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish va litsenziya olish jarayonlari yanada soddalashtirilib, "yagona oyna" tizimi orqali barcha xizmatlar elektron shaklda ko'rsatilishi kerak.

2. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish lozim. Mikrokreditlar, imtiyozli ssudalar, garovsiz moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish kichik tadbirkorlarning faolligini oshiradi.

3. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish – kichik biznes korxonalarida ilmiy-texnik yangiliklarni joriy etish uchun grantlar, subsidiyalar va davlat buyurtmalari tizimini kengaytirish orqali amalga oshirilishi lozim.

4. Raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish – buxgalteriya, soliq va hujjat aylanishi jarayonlarini raqamlashtirish orqali vaqt va xarajatlarni kamaytiradi hamda biznes samaradorligini oshiradi.

5. Tadbirkorlikni o'qitish va kadrlar salohiyatini oshirish – oliy ta'lim muassasalarida "Tadbirkorlik asoslari" fanining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, yoshlarni startap loyihalar orqali biznes faoliyatiga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Eksportga yo'naltirilgan kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan logistika, sertifikatlash va xalqaro marketing xizmatlariga subsidiyalar ajratish zarur.

Umuman olganda, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu yo'nalishda davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi muhim o'rin tutadi. Kichik biznesning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi, hududiy farovonlikni oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va aholi daromadlarini ko'paytiradi. Kelgusida kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajriba asosida shakllangan kompleks yondashuv asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini modernizatsiya qilish orqali O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz." – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida." – PQ–3777-son, 2018-yil 14-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida." – PQ–60-son, 2022-yil 28-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot." – Toshkent, 2024.
5. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlar yo'lida." – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
6. Tursunov B., Gulomov S., Xo'jayev B. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. Mamatqulov A.A. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini oshirish yo'llari. – Ilmiy maqola, "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, №3, 2023.
8. World Bank. Uzbekistan: Enabling the Business Environment for SMEs. – Washington D.C., 2022.
9. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). SME and Entrepreneurship Policy in Uzbekistan 2023: Assessment and Recommendations. – Paris: OECD Publishing, 2023.
10. Abdullaev S., Ismailov I. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari. – "Innovatsion rivojlanish" ilmiy jurnali, №2, 2024.
11. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistika ma'lumotlari (2023–2024-yillar). – www.stat.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100